

## **QORAQALPOG'ISTONDA ISPAN MAVRAGI (*SALVIA HISPANICA L.*) O'SIMLIGINING BIOEKOLOGIYASI**

**Kalmuratova A., Tursunboev H. E.**

*Qoraqalpoq Davlat Universiteti*

---

### **ARTICLE INFO.**

**Kalit so'zlar:** Chia urug'i, yerni taylorlash, Qoraqalpog'iston sharoyiti, unib chiqishi.

---

### **Аннотация**

Sarlavha: Maqolada chia (*Salvia hispanica L.*) o'simligi foydali xususiyatlari haqida va Qoraqalpog'iston sharoyatida yetishtirish haqida ma'tumotlar keltirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

**Kirish.** Marmarak (mavrak, shalfey) – ko'p yillik o'simlik yoki yarim butalar turkumi. Marmarak turkumi vakillarining vatani O'rta yer dengizi sohillari sanaladi. Mavrak o'simligi *Lamiaceae* L – Labguldoshlar oilasiga, *Salvia* L. – shalfey, marmarak, zig'irak turkumiga kiradi. Lotin tilida "salvara" davolamoq degan ma'noni anglatadi. Turkumning aksariyat turlari davolash maqsadida ishlatalidi. Bu turkum vakillari bir yillik va ko'p yillik o't, chala buta, tropik mamlakatlarda esa buta va daraxtsimon o'simliklardir. *Salvia* L. turkumi 700 dan ortiq turdan iborat bo'lib, asosan issiq va mo'tadil iqlimli mintaqalarda tarqalgan.

Chia oq, yoki ispan shalfeyi (*Salvia hispanica L.*) —Lamiaceae oilasiga mansub o'simlik, sho'radoshlar turkumiga mansub. Chia urug'lari an'anaviy ravishda Lotin Amerikasi (ayniqsa, Meksika), shuningdek, AQShning janubi-g'arbiy qismidagi ba'zi mamlakatlar aholisi tomonidan iste'mol qilinadi.

Bo'yi 1 m gacha bo'lgan bir yillik o't o'simlik chia yoki ispan shalfeyi - Markaziy va Janub Meksika, Gvatemala, Ekvador, Boliviya va Argentinadagi qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil iqlimli bo'lgan tog'li hududlarda o'sadi. O'simlik + 5 °C dan past havo temperaturasiga chidamaydi. Tegishli iqlim sharoitida u 60 - 90 sm balandlikka yetadi. Barglari qarama-qarshi uzunligi 4-8 sm, kengligi 3-5 sm. Gullari oq yoki binafsha rangga ega. Urug'lari kichik oval, diametri taxminan 1 mm. Ular jigarrang, kulrang, qora yoki oq rangda bo'lib, yuzasida naqshli chiziqli.

Kimyoviy tarkibi: chia urug'larida 20% protein, 34% yog', 25% xun tolasi va katta miqdordagi antioksidantlar mavjud. Ayniqsa, linolenik va boshqa omega-3 yog' kislotalariga boy. Chia urug'lari shuningdek vitaminlarni o'z ichiga oladi: A, C, E, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, PP, shuningdek, ko'p miqdorda kaliy, kaltsiy, magniy, fosfor, selen va sink.

Ishlatilishi: ko'p miqdorda antioksidantlar mavjud chia urug'ları uning yuqori antioksidantlar tarkibi sog'liqqa ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Eng muhim, uning antioksidantlari hujayralardagi molekulalarga ziyon yetkazadigan va qarish va saraton kabi xastaliklarga olib keladigan xoli radikallar ishlab chiqarishga qarshi kurashadi.

Yurak kasalligi va ikkinchi turdag'i diabet xavfini kamaytiradi. Qon bosimini tushurishda ishlatalidi. Shu jumladan suyak uchun zarurli bo'lgan oziqlik xususiyatga boy. Bunga kaltsiy, fosfor, magniy va oqsil kiradi. Uning tarkibidagi kaltsiy ayniqsa ta'sirchan. 30 gramm chia urug'I kunlik kaltsiyiga bo'lgan ehtiyojning 18 % qondiradi. Bu ko'pchilik sut mahsulotlaridan yuqori.

---

Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch

## Yetishtirish texnologiyasi

Ispan mavrak o'simligini sug'oriladigan, unumdarligi yuqori, o'ttacha mexanik tarkibli tuproqlarda o'stirish yaxshi natija beradi. Ko'p yillik ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklarga nisbatan ekib o'stiriladiganlarining tarkibida biologik faol moddalar to'liq saqlanishi aniqlangan. Ularning tarkibida ko'p miqdorda komponentlarning saqlanishi va bu moddalardan tibbiyotda to'la foydalanishda o'simlik xomashyolarini to'g'ri va vaqtida yig'ib olish asosiy ahamiyat kasb etadi. Ispan mavragi o'simligidan yuqori va sifatli mahsulot olish uchun agrotexnik tadbirlarni yuqori savyada o'tkazish kerak bo'ladi. Dorivor o'simliklardan yuqori hosil olishga qaratilgan barcha agrotexnik chora-tadbirlar orasida yerni ishlangan asosiy ahamiyat kasb etadi. Chunki yer ishlanganda, tuproqning fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalari yaxshilanadi, shu bilan bir qatorda barcha agrotexnik tadbirlarning samaradorligi ortadi, o'simlikning o'sishi va rivojlanishi tezlashadi.

Ispan mavrak o'simligi issiqsevar, yorug'likni yaxshi ko'radigan, qurg'oqchilikka chidamli ekin hisoblanib, u ekilgan yerlardan 4-5 yil davomida foydalanib yuqori hosil olish mumkin bo'ladi. O'simlik ekiladigan yerkarni kuzda tayyorlanadi va yer haydash oldidan tuproq unumdarligini bir holatda saqlab turish maqsadida o'simlikni o'sish davrida yaxshi rivojlanishi uchun gektar hisobiga 20 tonna mahalliy o'g'it va yillik normaning 70% hisobidan fosfor o'g'itini berib, 25-30 sm chuqurlikda sifatli qilib haydab qo'yiladi. Erta bahorda yer tekislanadi va begona o'tlar qoldiqlaridan tozalanadi. Urug'ni mart-aprel oylarining boshlarida tuproq harorati 15-17°C bo'lganda qator oralari 60-70 sm qilib, 2-4 sm chuqurlikda sabzavot ekadigan uskunalarda ekiladi va gektariga o'ttacha 8 kg sifatli urug' sarflanadi. O'simlikni kech kuzda ham eksa bo'ladi. Maysalar bahorda urug' ekilgandan keyin 12-14 kunda unib chiqa boshlaydi. Birinchi kunlarda maysalarni sekin o'sishi kuzatila boshlaydi va begona o'tlar orasida qolib ketmasligi uchun yerkarni kultivatsiya va yumshatib turiladi. Ispan mavragi zinch ekilganda yoki begona o'tlar ko'payib ketganda, bahor seryomg'ir kelganda o'simliklarda qo'lsimon zamburug'lar va zararkunandalarning ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. O'simlik tupida ikki juft chinbarglar hosil bo'lganida har 15 sm oralig'ida uyachalar 2-3 tadan o'simlik qoldirib yagana qilinadi. O'simliklarning ildiz tizimiga zarar yetkazmasdan ehtiyyotkorlik bilan qator oralariga ishlov berish tavsiya etiladi. Tuproqning namligi va o'simlikning holatiga qarab sug'orishni tabaqalab o'tkazish lozim. Mavsum davomida mavrakni birinchi yili 7-8 martagacha sug'orishni tavsiya etiladi. Bargining sathi kuchayishi va ildiz tizimining rivojlanishi davrlarida u suvni ko'p talab qiladi. O'simlik yaxshi o'sishi va rivojlanishi uchun uni o'g'itlash eng muxim agrotexnik omillardan biri hisoblanadi.

Ispan mavragini oziqlantirishni maysalar unib chiqqandan keyin ularning yaxshi rivojlanishi uchun qator oralariga ishlov berish bilan bir vaqtida gektar hisobiga azot o'g'itidan 30 kg va 25 kg dan kaliy berishdan boshlash lozim. O'g'itlarni 10-12 sm chuqurlikka kirgizish tavsiya etiladi. Ikkinci oziqlantirish esa shonalash fazasida, sug'orishdan oldin gektar hisobiga 30 kg azot va 20 kg fosfor o'g'itini berish bilan amalga oshiriladi va uning rivojlanishi yanada tezlashadi. Oxirgi oziqlantirish mavrak o'simligi gullagan davrda gektar hisobiga 40 kg azot va 25 kg kaliy o'g'itini qo'llash bilan tugatiladi. Kaliyli o'g'itlar mavrakning sovuqqa chidamlilagini ancha oshiradi. O'simlikning rivojlanish davrida, ayniqsa gullah fazasida oziqa elementlarni ko'p talab qiladi. O'simlikni oziqlantirish sug'orishdan oldin amalga oshiriladi. Shularni hisobga olgan holda vegetatsiya davomida mavrak ekilgan maydonlarga o'ttacha gektariga 100-110 kg azot, 70 kg fosfor va 50 kg kaliy o'g'iti bilan oziqlantirilsa yaxshi natija beradi.

### Ispan mavragi o'simligini Qoraqalpog'iston sharoitida egib o'stirish.

Chia ósimligini yetishtirish jarayoni 2022-yilning 30 -aprel kuni amalga oshirildi. 20 - may kuni urug'lar agrotexnik ishlar olib borilgan ekish uchun tayyorlangan yerga ekildi.

Bu yerlar 25-30 sm chuqurlikda haydaldi va mololandı. So'ng yer ekishga tayyorlandi. Egat orasi 60 sm. Qator orasi 40 sm bo'ldi. Chia ósimligini urug'i mayda bo'lganligi sababli ekish shuqirligi 1 sm bo'ldi, mayda urug'lar ekish chuqirligi 0, 5-1 sm bo'lishi zurur.

Unip shiqich vaqtı urug' ekilgannan so'ng 10-15 kun oralıǵıda unib shıqa boshladi. Bunda unuvchanlık 100% deb hisoblasak 85% urug' unib chiqdi. O'simlikning haqiqiy barglari o'simlik yer yuziga chiqgan kunidan 5 kun otib hosil qildi. O'simlik 5-6 barglarini hosil qilganida o'simlik poyasi yaqqol namoyon bo'ladi. Ispan shalfeyi o'simligi Qoraqalpog'iston sharoitida uzunligi 60-80 sm oralıǵida bo'ladi.

O'simlik g'unchalash davri o'simlik vegetatsiyasining 43-56 kunlarında kuzatıldı. O'simlik gullash davri 62-80 - kunlarında kuzatıldı. O'simlik urug' hosil qılısh davri 80-110-kunlarında kuzatıldı. O'simlik vegetatsiya davrining yakunlanishi 105-110 kunni tashkil qildi. Qoraqalpog'iston sharoitida ekip o'stirilgan ispan mavragi o'simligi vegetatsiya davri 110 kunni tashkil qildi. Ispan mavragi o'simligi vegetatsiya davomida haqiqiy barg hosil qilguniga qadar 1 marta, haqiqiy barg hosil qilgach 2 marta, gullash boshqichida 1 marta sug'orildi.

Qoraqalpog'istonning ekin maydonları tuproqları har xil bo'lib keyingi yillarda olimlarımız bir qancha dorivor, yem-xashak ósimliklarnı har xil tuproqlarda yetishtirishtirishga erishmoqda va chia ósimligin yetishtirish va undan ko'p miqdorda hosil olish yo'llarini ishlab chiqish zarur.

### Foydalanilgan adabyotlar

1. L. X. Yoziev, N. Z. Orabova "Dorivor o'simliklar" Toshkent - 2017
2. Sokol'skiy I. Chia, o'n je ispanskiy shalfey // Nauka i jizn: jurnal.- 2021.
3. Bukasov S. M. Vozdelivaemie rostteniya Meksiki, Gvatemala i Kolumbii.- L.: Vsesoyuzniy institut rosttenievodstva VASXNIL
4. O'.Ahmedov va boshqalar. Dorivor o'simliklarnı yetishtirish texnologiyasi. T.: Moliya-iqtisod 2018.
5. Xolmatov X.X., Xabibov. O'zbekiston dorivor o'simliklari. T.: Meditsina, 1972. 6. I.Hamdamov, P.Shukrullayev, E.Tarasova, Y.Qurbanov, A.Umrzoqov. Botanika asoslari. Toshkent: Mehnat, 1990.